

**MAXMUR SHE'RIYATIDA BADIY-TASVIRIY VOSITALAR: MUBOLAG'A VA TALMEH**

**Temirov Jamoliddin Elmirza o'g'li,**  
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [jtemirov9319@gmail.com](mailto:jtemirov9319@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek satirik adabiyotining yirik vakili Maxmur ijodida badiiy tasvir vositalari, xususan, mubolag'a va talmeh san'atlarining qo'llanilish mahorati tahlil qilingan. Shoirning satirik obrazlar yaratishda an'anaviy poetik vositalardan qanday qilib yangicha maqsadlarda foydalanganini tadqiq etiladi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy-tasviriy vositalar, poetik vositalar, mubolag'a, talmeh, g'uluvv, ig'roq, tablig', o'z – o'zini fosh qilish.*

***Аннотация.** В данной статье анализируется мастерство использования художественных средств выражения, в частности, искусства гиперболы и талме, в творчестве Махмура, одного из ведущих представителей узбекской сатирической литературы. Рассматривается, как поэт использовал традиционные поэтические средства в новых целях при создании сатирических образов.*

***Ключевые слова:** Художественно-образительные средства, поэтические средства, гипербола, аллюзия, гулувв, игрок, таблиг, саморазоблачение.*

***Annotation.** This article analyzes the mastery of artistic expression, particularly hyperbole and talme, in the works of Makhmur, one of the leading figures of Uzbek satirical literature. It examines how the poet used traditional poetic devices for new purposes in creating satirical images.*

***Key words:** Artistic and figurative means, poetic devices, hyperbole, allusion, ghuluvv (extreme exaggeration), ighroq (improbable exaggeration), tabligh (feasible exaggeration), self-exposure.*

**Kirish.** “Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib “badiiy tasvir va ifoda vositalari” deb ataladi... badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Aytish kerakki, bu tushuncha adabiyotshunoslikda “poetik vositalar”, “sintaktik figuralar”, “stilistik figuralar” kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Shuni ham yodda tutish lozimki, bu vositalarning bunisi tasvir, bunisi ifoda vositasi deyishlik ham nomaqbul, chunki badiiy adabiyot so'z vositasida tasvirlaydi va shu tasvir orqali ifodalaydi. Ya'ni, ko'p hollarda bitta vositaning o'zi ham tasvir, ham ifodaga xizmat qiladi. [1:130]

Sir emaski, hajviy ruhdagi asarlarda kulgili holatni yaratish uchun ijodkor badiiy tasviriy vositalardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Zero, ma'nosi kuchaytirilgan, bo'rttirilgan ifodalarni berishda she'riy san'atlarning, qofiya va vaznning ahamiyati ulkandir. Shuning uchun ham adabiyotimiz tarixidan ma'lumki, hajviy asarlarning taraqqiyotiga yetarlicha hissa qo'shgan ijodkorlarimiz asarlariga nazar tashlar ekanmiz ularning tashbih va tashxis, istiora va husni ta'lil, talmeh va tazod, mubolag'a kabi tasviriy vositalardan unumli foydalanganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mana shu vositalar orqali asarlarning ta'sirchan ruhini, keskinlikni juda avj nuqtalariga olib chiqishgan. Albatta, har

qanday tasviriy vositalardan foydalanganda ijodkor o'z oldiga g'oyaviy – badiiy niyatni maqsad qilib olgan taqdirdagina asarning ta'sirchanligi, undagi kayfiyat o'quvchiga ko'chishi mumkin. Bu maqsad ortida esa kulgili portret chizish, hajviy obrazning ijtimoiy qiyofasini qahqahali kulgi yordamida yorqin va ta'sirchan qilib tasvirlash jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan illatlarni kulgi ostiga olib masxaralash, shu jarayonda ijobiy ideallarni ilgari surishdan iboratdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Maxmur satirik mahoratini tadqiq qilgan Muhammadali Mahmudov bu haqida yozadi: “Maxmur mumtoz she'riyatning, avvalo, Alisher Navoiy hajviy uslubi an'alarini davom ettirgan va rivojlantirgan holda xilma-xil tasvir vositalari imkoniyatidan mohirona foydalanib o'lmas badiiy timsollar yaratdi. Uning hajviy asarlarida keng qo'llangan har bir she'riy san'at, har qaysi vazn, qofiya kulgili timsol chizishga xizmat qildi, hajviyotning joziba kuchini oshirdi, ta'sirchanligini kuchaytirdi.”[2:84] Maxmur bu kabi vositalardan o'z asarlaridan foydalanar ekan ularni faol tarzda qo'lladi. Shoir badiiy – tasviriy vositaga murojaat qilishdan oldin, tarvirga olinayotgan obrazning portretini yaratishda qo'l keladigan vositalarni keng miqyosda o'rganishga va shu kabi vositalar yordamida asarlarning ta'sirchanligini oshirishni maqsad qilib oladi. Shu sababdan, Maxmur foydalangan tasvir vositalari xilma – xil ko'rinishlar yaratishi, obraz va tasvirning mantiqiy uyg'unligi, hayotiy asoslari chiroyli aks ettirilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoirning ildizlari bir bo'lgan o'zbek va tojik xalqlari tarixi, urf-odatlar, og'zaki ijod namunalari, mumtoz adabiyotimiz asarlarini chuqur bilishi, unga xos bo'lgan xushchaqchqlik, so'zamollok, zukkolik tasvir vositalarini tanlashda muhim omil vazifasini o'taydi.

Maxmur asarlarida keng qo'llangan tasviriy vositalardan biri mubolag'adir. Shoir ushbu vositadan foydalangan holda o'ta kulgili obrazlar yaratadi, qahqaha uyg'otuvchi manzaralar chizadi, shoir o'zi aytmoqchi bo'lgan g'oyani ushbu timsollariga jamlaydi.

Ma'lumki, mubolag'a mumtoz she'riyatimizdagi eng mahsuldor tasviriy vositalardan biri sifatida har qaysi shoir ijodidan keng o'rin egallagan. She'riyatda mubolag'a lirik qahramon tasviri, uning tug'yonli kechinmalari, ehtiroslar olami, mahubaning behad go'zalligi-yu, yoqimli fazilatlar, rind, shoh, zohid, shayx, raqib, ko'ngil kabi lirik timsollarni jonli va jozibali ifodalashga xizmat qilib kelganki, buni Xorazmiy va Atoiy, Lutfiy va Sakkokiy, Alisher Navoiy va Bobur, Nodira va Ogahiy kabi ustoz ijodkorlar asarlarida yaqqol guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mubolag'a mahsuldor she'riy san'at sifatida hajviy she'riyatda ham keng qo'llanib kelgan. Navoiy va Turdi, Mashrab va Ogahiy, Mujrim Obid va Gulxaniy, Muqimiy va Zavqiy singari hajvgo'y ijodkorlar ushbu she'riy san'atdan hajviy timsolning tashqi va ichki qiyofasni chizishda ham, uning ma'naviy dunyosini, xulq – atvorini kulgili tasvirlashda ham unumli foydalanib kelganlar.

Maxmur mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda mubolag'aning turli shakllaridan hajviy portret yaratishda ham, ma'naviy qiyofaning

kulgili ifodasiga erishishda ham o‘z san’atkorligini namoyon qildi.

Mubolag‘a shoir hajviyotida, avvalo, kulgili qiyofa tasvir yaratishga xizmat qiladi. Buni aksariyat asarlar misolida kuzatish mumkin. Avsofi Qozi Muhammad Rajab Avj nomiga atab yozilgan hajviyasidagi:

*Chiqib, ar-ari qaddi chandon uzun,  
Bo‘lur saqfi gardunga qilsang sutun.  
Kesib bir shitolangni ham ikki yo‘l,  
Ravon ayla Jayxunu Sayxunga pul, —*

kabi misralarda qo‘llangan mubolag‘aga (g‘uluvv) qozining bo‘yi uzunligini bo‘rttirib, qiziqarli tasvir yaratishga xizmat qilgan. Bu kulgi esa real shaxs qiyofasi, xususan, bo‘yi bilan me‘yoridan tashqari tasvir o‘rtasidagi nomutanosiblikka asoslangan bo‘lib, qozining beo‘xshov uzun gavdasi bilan osmonga qo‘yilgan sutun-u ikki oyog‘i bilan Sirdaryo bilan Amudaryoga qo‘yilgan ko‘pikni ko‘z oldida tasvirini chizgan shoir o‘quvchi bu xil mubolag‘adan zavqlanib qahqaha urishiga sabab bo‘ladi. Yoki ushbu she‘rning dastor tasviri berilgan o‘ringa e‘tibor beraylik:

*Teribdirkim ofoqdan pattani,  
Yig‘ib ko‘chadin lakburish lattani.  
Qiyim pattani jam‘i payvand etib,  
Ani ustidin lattani band etib.  
Qilib tul dastorini yuz quloch,  
Vale eskilikdin edi ming umoch.  
Dami gar buzulsa bu dastori zor,  
Tuzatmog‘ga solgay anga mardikor.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** Butun olamdan minglab pattalarni yig‘ganicha, ularni payvand qilganicha, bir emas, ikki emas, yuz dastor qilgani va agar ushbu dastor buzilib, ya‘ni tuzib qolsa, uni tuzatishga mardikor yollashi haqidagi mubolag‘aviy tasvirlar ham asarning ta‘sirchanligini oshiradi. Biz shunga o‘xshash mubolag‘aviy tasvirlarga Hakim Turobiyning tasviri berilgan hajviyada ham duch kelishimiz mumkin. Uning rangini qishning chillasidek sovuq, ushbu odamning yuzi haqorat-u so‘kishga loyqlik yuz ekanligini ta‘kidlaydi:

*Erur rangi qish chillasiday sovuq,  
Haqoratga boyu, so‘karga yovuq...*

Ushbu ifodani tarzini o‘qigan odam Maxmurning mubolag‘adan foydalanish qobiliyatiga tan bermasdan iloji qolmaydi. Maxmurning mubolag‘alardan foydalangan holda asarning kulgili tasvir yaratishdagi mahoratini, shuningdek, Avsofi Mulla Yaqub Xo‘jandiy va Avsofi Qozi Muhammad Zuhur zargar she‘rlarida ham guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Maxmurning she‘rlarida obrazning xulq – atvori tasvirida mubolag‘adan o‘quvchi ko‘z o‘ngida hajviy timsol harakatlarining noodatiy, mantiq chegaralariga sig‘maydigan

manzaralarini tasvirlashda keng foydalangan.

Mubolag'aning eng qulay vosita ekanligi Maxmur keng foydalangan o'z – o'zini fosh qilish tarzidagi she'rlarida juda qo'l kelgan. Shoirning bu usuldan bu kabi she'rlarda foydalanishi hajviy obrazning illatlarini, nuqsonlarini jonli va real tasvirlashga yordam bergan. Chunki asar qahramoni o'z – o'zini fosh qilish tarzidagi she'rlarda maqtanish niyatida aytgan so'zlari o'quvchida zaharxanda kulgi uyg'otadi.

Ma'lum bir shaxsni beayov fosh qilish kerak bo'lar ekan, ijodkor mubolag'aning ig'roq turiga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Bu kabi mubolag'a turida tasavvur qilib ishonch hosil qilish mumkin, biroq aqlga sig'maydigan holda tasvirlanadi. Hakim Turobiy hajviga bag'ishlangan she'rdagi:

*Kelar oldida kimki doru so'rab,*

*Ba ahvoli ranjur dardu taab.*

*Berar zahrni no'sh doru debon,*

*Ani o'ldirib beajal shul zamon.*

Baytlari shu fikrlarni asoslaydi. Zotan, bemor odamning tabib oldiga davo istab borishi va tabib unga dori sifatida “zahri no'shni” berishi, bundan so'ng bemorning shu zahoti vafot etishi ishonish mumkindek tuyuladi, lekin aqlan olib qarasa, bemor odam o'limga sabab bo'ladigan dorini ichmasligi hech kimga sir emas. Maxmur bu tarzidagi mubolag'alarni keng qo'llaydi.

Maxmur asarlarida mubolag'aning eng yuqori darajasi — g'uluvdan kam foydalanilgan. Buning sababi, mubolag'annng ushbu turida belgining haddan tashqari bo'rttirilishidir. Zero, bu xil mubolag'ada belgining aqlan tasavvur qilib bo'lmasligi, hayotda ham yuz bermaydigan tarzda nfodalanishi tufayli o'quvchida ig'roqchalik kulgi qo'zg'atmaydi.

Maxmur ba'zan o'zi tasvirlayotgan hajviy timsol belgilarni o'ta kichraytirib, belgini nihoyatda kuchsizlantirib ifodalash usulini qo'llaydi. Chunonchi, “Avsofi Karimqul mehtar” she'rida shoir o'ziga tortiq qilingan otning ta'rifini berar ekan:

*Suv ham ichsa tomog'iga tiqilur,*

*Pashsha gar qo'nsa yoliga — yiqilur,—*

baytida mubolag'aning o'ta darajada kichraytirish usuliga murojaat qilgani ko'zga tashlanadi. O'rinli qo'llangan san'at mazkur timsol xususiyatlarini ochishgagina emas, kuchli kulgi uyg'otish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Zero, suv ichsa tomog'iga tiqiladigan, hatto, pashsha qo'nsa ham yiqilib tushadigan otni ko'z oldiga keltirib, tasavvur qilib ko'rgan o'quvchi yuzida tabassum bilan bu satrlarni o'qishi tayin.

**Tahlil va natijalar.** Maxmur she'riyatini kuzata turib shunga duch kelish mumkinki, u talmeh san'atidan ham juda unumli ijod namunalari yarata olgan. Adabiyot ahliga sir emaski, she'rda tasvirga tortilayotgan timsolning afsonaviy, mifologik yoki tarixiy obrazlarga qiyoslanib, biror afsonaviy obraz ijodkor tasvirlamoqchi bo'lgan obraz misolida uning xarakterli jihatlarini, obrazga aloqador hikoyat, rivoyat, afsona, voqealar

bir nuqtada to‘planadi, natijada shoirning asl maqsadini ochib berishda bu vosita juda qo‘l keladi. Shoir timsollarining ko‘pchiligini keskin fosh qilar ekan, ularning keng omma orasida mashhur bo‘lgan zolim, nodon, kibr-u havoga to‘lgan kimsalar vositasida asarlarning xalqchilligini oshirgan, bu esa she‘rlarining jozibasini, yorqinligini oshirgan.

Mana shunday mohirona qo‘llangan talmeh namunalariga Maxmurning “Arzi qishlog‘i Hapalak janobi Said Umar Sulton” nomli she‘rida duch kelish mumkin. Shoir ushbu asarida ko‘pchilikka yaxshi tanish bo‘lgan afsonaviy, diniy qahramonlar: Momo Havo, Odam Ato, Oj ibn Anuq, Arojif kabilar misolida ular bilan bog‘liq bo‘lgan voqea, hodisalarga ishora qilib, o‘zining g‘oyalarini ifodalaydi, jimjimador lavhalar yaratadi, o‘quvchilarning ehtirosini oshiradi.

*Yaki ast Avvali u‘chibai abul jin zod,*

*Digar az-uj Anus gashta dar jahon paydo.*

*Yaki az nasli Arojifu ko‘raki badtol,*

*Yaki az suxrai haq zohirash zuhuri balo. ...*

*Yaki talosh kunad bahri yakdu man arzan:*

*Digar zi man talabad irsi odamu havvo.*

Albatta, bu kabi talmeh namunalarini tushunish uchun o‘quvchidan yaxshigina bilimni talab qilishi tayin. Zotan bu talmehga olinuvchi qahramonlar uzoq tarixiy, badiiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Jumladan, Maxmur tilga olgan Oj ibn Anuq novcha bir obrazning ko‘rinishini ifodalash uchun ishlatilgan bo‘lib, unga Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida berilgan hikoyatga ko‘ra u quyidagicha ta‘riflanadi: “Avj Unuqning o‘g‘li erdi, uzun bo‘ylug‘ erdi. To‘fonda suvga g‘arq bo‘lmadi, aning uchunkim, to‘fon suvi tiziga yetmadi. Tog‘lar uza o‘ltirib tengizg‘a ilkin sunuyu baliqni olib kunga qarshu tushub so‘klo‘b yeyur erdi...” [3:48] Albatta, bu kabi hikoyatdan xabardor kishi, uni hayolida gavdalantirib Maxmurning kulgi yaratish qobiliyatiga tan bermasdan iloji qolmaydi. Shuning uchun ham talmehni tushunish uchun o‘quvchidan o‘ta ziyraklik va bilimni talab qiladi.

Maxmurning Hakim Turobiyga atab yozgan she‘rida uni buyuk tabib Jolinusga qiyos qilishi uning yorqin qiyofasini hosil qiladi. Maxmur shu orqali ushbu obraziga reallik, konkret bir o‘lchov qo‘yadi, go‘yoki o‘zini Jolinusga tenglashtirgan Hakim Turobiyning mantiq doiralariga sig‘maydigan amallarini fosh qiladi. Yana bir shunga o‘xshash she‘rlaridan biri bo‘lmish, “Avsofi Mulla Yaqub Xo‘jandiy” nomli she‘rida asar qahramonini Zardushtiylik ta‘limotidan ma‘lum bo‘lgan afsonaviy yomonlik elchisi Ahrimanga o‘xshatadi:

*Qayerda agar topsa behayo,*

*Vujudi fano lobuvoli vabo.*

*Ko‘rub notavon hol bul Axraman,*

*Ba hangomai bazmu, lutfi suxan.*

Aynan shu qahramon tilidan yozilgan boshqa bir “iqroornoma” she‘rida esa, Mulla

Yaqub o'zini kibr, yomonlik, nodonlik, makkorlik timsollari bo'lgan Fir'avn, Namrud, Shaddod, Bujahl, Buahabga kabi kimsalar bilan payvasta, yonma-yon turganligini, ularning xizmatida yurgan xizmatkor ekanligini, ularning hurmatidagi kimsa ekanligini aytadi va shu bilan bir qatorda o'zining ma'naviy dunyosidagi chirkinliklarni namoyon qiladi:

*Fir'avnga muqorinu, namrudga nadim,  
Shaddodga musoxibu, hamdam manam-manam. ...  
Badba tu shumi shuhrai oxir zamon desang,  
Bujahlu Bulahabga mukarram manam-manam.*

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida ko'rib o'tganimiz she'rlarda Maxmur ifodalagan obraz o'zini tarixda o'tgan obrazlarga tenglashtirsa, boshqa bir "Takabbur" nomli she'rida asar qahramoni bu Fir'avn, Shaddod, Namrud, Xomonlardan ham o'tib tushgan nobakorligini aytib, asarning ta'sirini kuchaytirib yuborgan. Chunki Maxmur tilga olgan obraz ushbu afsonaviy qahramonlardan ham yomonroq bo'lib, ular "kibr musobaqasida" unga yutqazganini, Namrud unga shatranj o'yinida mot bo'lganini o'qib tushungan o'quvchi, "Takabbur"dagi bosh obrazning yorqin ifodasini anglaydi.

Maxmur o'zbek hajviy she'riyatida nafaqat tanqidchi shoir, balki mumtoz badiiy san'atlarni satira xizmatiga bo'ysundira olgan mohir san'atkor sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan mubolag'a va talmeh vositalari shoir ijodida shunchaki bezak emas, balki g'oyaviy maqsadni amalga oshirishning asosiy quroli bo'lib xizmat qilgan.

Ijodkor qo'llagan badiiy tasvir vositalari asarning ta'sirchanligini oshirish bilan birga, jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashda shoirning estetik idealini yoritib beruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. www.ziyouz.com sayti
2. M.Махмудов. Қаҳқаҳанинг кудрати (Махмур сатираси ҳақида рисола). Тошкент. Чўлпон нашриёти. 1995-йил.
3. «Қиссаси Рабгузий». I китоб. «Ёзувчи» нашриёти. 1990.
4. Maxmur devonidan namunalar.
5. Elmirza o'g'li, T. J. (2024). Maxmur ijodida adabiy ta'sir masalasi